

Munosabat

SAMARQAND NUFUZLI ANJUMANGA MEZBONLIK QILADI

Qodir JOʻRAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Xalqaro ishlar
va parlamentlararo aloqalar
qoʻmitasi raisining oʻrinbosari

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimizning “2025-yilda UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining Samarqand shahrida oʻtkazilishiga tayyorgarlik koʻrish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori esa nufuzli xalqaro anjumanni yuqori saviyada va tashkiliy jihatdan yuksak darajada oʻtkazish uchun puxta tayyorgarlik koʻrishga qaratilgan qator vazifalar belgilab berilgani bilan ahamiyatlidir. Qarorda oliy anjumanga tayyorgarlik bilan birga, Oʻzbekiston va UNESCO oʻrtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishning istiqbolli yoʻnalishlari ham belgilab berildi. Xususan, Samarqand shahridagi tegishli madaniy meros obyektlarini asrashga doir ishlar hamda immersiv va mavzuli koʻrgazmalar tashkil etiladi. Mamlakatimizning Madaniy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish boʻyicha xalqaro tadqiqot markaziga aʼzo boʻlishi uchun rasmiy ariza topshiriladi. Shuningdek, Oʻzbekistondagi shaharlar, noyob madaniy va tabiiy meros obyektlarini tegishlacha UNESCOning Ijodkor shaharlar hamda Taʼlimni targʻib etuvchi shaharlar tarmoqlariga va boshqa xalqaro roʻyxatlarga kiritish choralari koʻriladi.

Taʼkidlash joizki, Oʻzbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasini chuqurlashtirishda UNESCO tashkiloti muhim rol oʻynamoqda. Ayniqsa, soʻnggi yillarda mamlakatimizning ushbu tashkilot bilan oʻzaro hamkorligi ancha samarali kechmoqda. Bunga misol sifatida oʻzbek xalqi moddiy va nomoddiy madaniy merosining qator durdonalari UNESCO roʻyxatlaridan joy olganini alohida keltirish mumkin. Jumladan, 2023-yilda “Ipak yoʻli: Zarafshon-Qoraqum koridori” nomzodnomasi UNESCOning Butunjahon merosi roʻyxatiga kiritildi.

Albatta, UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining bosh qarorgohi sifatida Samarqand shahri tanlab olinishi bejiz emas, bunda chuqur ramziy maʼno mujassam. Zero, ushbu koʻhna va hamisha navqiron shahar azaldan tarixiy uchrashuvlar, tamaddunlar muloqoti markazi boʻlib kelgan. Bu yerda turli madaniyatlar oʻzaro uchrashib, bir-birini toʻldirib, boyitib kelgani hech kinga sir emas. Bunga misol sifatida oʻrta asrlarda faoliyat yuritgan Buyuk ipak yoʻlini eslashning oʻzi kifoya.

Hozirgi kunda ham “Sharq gavhari” boʻlmish Samarqand mamlakatimizning eng muhim

Sharh

YAXSHI RAHBAR RAGʻBATLANTIRILADI

AKSINCHA, “QONIQARSIZ”INING EGALLAB TURGAN LAVOZIMIGA LOYIQLIGI KOʻRILADI

Asror MUHITDINOV,
Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi
departament mudiri

Qaysi zamon yoki qanday yoʻnalishda boʻlmasin, oʻz ishiga fidoyi mutaxassis, yaxshi ishchi hamisha qadrlangan. Chunki ularning samarali faoliyati ish beruvchiga, bunday ish beruvchilarning koʻpligi esa jamiyatga, davlatga yaxshigina naf keltirgan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, koʻplab ishchi va mutaxassislarni boshqaruvchi rahbar xodimlarning faoliyati samaradorligi maʼlum bir tizim yoki yoʻnalish rivojida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda keyingi yillarda yangi Oʻzbekistonni barpo etishning muhim sharti hisoblangan samarali faoliyat yurituvchi boshqaruv tizimini shakllantirish boʻyicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy talablarga javob beradigan ixcham davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish, davlat organlari rahbarlarining masʼuliyatini oshirish hamda ular faoliyatini natijadorlikka yoʻnaltirishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari qabul qilindi.

Prezidentimizning joriy yil 13-martdagi “Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xoʻjalik birlashmalari faoliyati samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni bu boradagi ishlarning mantiqiy davomi boʻldi.

Farmon “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish hamda davlatimiz rahbari huzurida joriy yil yanvar-fevral oylarida oʻtkazilgan yigʻilishlarda 2024-yil uchun sohalar boʻyicha belgilangan maqsadli koʻrsatkichlarga oʻz vaqtida, toʻlaqonli va sifatli erishilishini taʼminlash, shuningdek, rahbarlar va oʻrinbosarlari faoliyatini natijadorlikka yoʻnaltirishning yangi tizimini nazarda tutishi bilan ahamiyatidir.

Mazkur hujjat bilan bir qator asosiy masalalar belgilab berildi.

Birinchidan, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xoʻjalik birlashmalari rahbarlari va oʻrinbosarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik koʻrsatkichlarini ishlab chiqish va tasdiqlashning yangi mexanizmi joriy etildi. Xususan:

— endilikda rahbarlar va oʻrinbosarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik koʻrsatkichlari har yili hukumat tomonidan “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi, Prezident hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlari va topshiriqlarida belgilangan

hamda oʻrinbosarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik koʻrsatkichlariga erishish boʻyicha “yoʻl xaritalari” hamda ularni hududlarda amalga oshirish boʻyicha chora-tadbirlar dasturi samaradorlik koʻrsatkichlari bilan birga kompleks tartibda hukumat darajasida tasdiqlanadi. Ushbu hujjatlarning bir vaqtda va hukumat tomonidan tasdiqlanishi ularning uygʻunligini taʼminlaydi.

Shuningdek, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi oʻrinbosarlarining, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari oʻrinbosarlari faoliyatining samaradorlik koʻrsatkichlariga erishish boʻyicha “yoʻl xaritalari” hamda tuman (shahar) hokimlari oʻrinbosarlari faoliyatining samaradorlik koʻrsatkichlariga erishish boʻyicha “yoʻl xaritalari” hamda tuman (shahar) hokimlari oʻrinbosarlari oylik ish rejalarini tegishlacha Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman (shahar) hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

Uchinchidan, baholash jarayoni raqamlashtirilib, inson omili qisqartirilmoqda, yaʼni samaradorlik koʻrsatkichlari bajarilishi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar har chorakda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining samaradorlik.uz elektron platformasiga kiritiladi hamda unda rahbarlar va oʻrinbosarlari faoliyati samaradorligi reytingi shakllantiriladi.

Reytingda har bir samaradorlik koʻrsatkichiga belgilanadigan salmoq oʻlchovi yigʻindisidan kelib chiqib, samaradorlik koʻrsatkichlari ular bajarilishi 70 foizdan kam boʻlganda — “qoniqarsiz”, 70 foizdan 85 foizgacha — “qoniqarli”, 85

Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xoʻjalik birlashmalari rahbarlari va oʻrinbosarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik koʻrsatkichlarini ishlab chiqish va tasdiqlashning yangi mexanizmi joriy etildi.

Ikkinchidan, ushbu samaradorlik koʻrsatkichlariga erishish boʻyicha “yoʻl xaritalari” va oylik ish rejalarini hamda ularni hududlarda amalga oshirish boʻyicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash amaliyoti yoʻlga qoʻyilmoqda.

Ish boshlaganiga ikki oy boʻlgan xususiy maktabda oʻquvchilarning yetarli bilim olishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Xususan, oʻquv-metodik va laboratoriya, individual mashgʻulotlar hamda oʻqituvchilar uchun alohida xonalar qilingan. Ikki qavatdan iborat majmuada 220 oʻquvchi 5-sinfdan boshlab taʼlim olishiga zaruriy sharoitlar muhayyo qilingan.

— Maktabimiz amaliy fanlarga va xorijiy tillarni oʻrgatishga ixtisoslashgan, — deydi Dilshod Karimov. — Hozir malakali oʻqituvchilar tanlov asosida ishga qabul qilinmoqda. Bu jarayonlar yakunlangach, toʻliq tarzda oʻquv mashgʻulotlari boshlab yuboriladi.

Binoning ikkinchi qavatida Chiroqqi tumanidan Germaniyaga ishga borish uchun til oʻrganish istagida boʻlgan yuz nafar yosh uch oylik oʻquv kurslarida ishtirok etmoqda. Ular majmuamizdan bepul foydalanishi

foizdan 100 foizgacha — “yaxshi” hamda 100 foiz va undan yuqori boʻlganda “a lo” baholanadi.

Baholash jarayonini raqamlashtirish va axborot tizimlarini oʻzaro integratsiya qilish orqali inson omili keskin kamaytiriladi hamda maʼlumotlarning haqqoniyligi oshiriladi. Shuningdek,

Oʻrnak

YOSH TADBIRKOR MAKTAB VA SHIFOXONA QURDI

Boshlanishi 1-betda

Shunga ham ellik yil oʻtibdi. Bu orada binoning yonida yana ikkita xonani paxsadan qurib berildi. Nima boʻlgani ham shifoxonang bormi desa, bor degulik koʻrinishga keldi. Ammo har bir narsaning oʻz poyoni bor. Bino keyingi yillarda ancha yaroqsiz bulga kelib, devorlari qulagudek boʻlib qoldi. Hozir tashqari, islohotlar samarasida zamonaviy tibbiyot muassasalari barpo etilayotgan bir zamonda bu eski chordevorda ishlaydigan shifokorning oʻzi yoʻq.

Zamon oʻzgarib, endi qishloq koʻrinishiga yarashmay qolgan bino buzilib, oʻrniga yangi inshoot allaqachon boʻy koʻrsatdi.

Ana bu boshqacha ish boʻldi. Bugun yurtga shunday koʻrkam binolar yarashadi. Baraka topsin, qishloqdan chiqqan yoshgina tadbirkor yigit oʻz hisobidan yangi tibbiyot punkti qurib berishga bel bogʻlabdi. Otasiga rahmat. Mana, zamonaviy maskan hademay ishga tushadi. Koʻrinishi ham koʻzni quvnatadi.

Hali yosh boʻlishiga qaramay, Dilshod Karimov oʻzi tugʻilib oʻsgan Chiroqqi tumanidagi Qoraburuq qishlogʻi aholisi uchun barcha imkoniyatlarga ega oilaviy shifokorlik punkti qurib berdi. Jami toʻrt yuz million sarflangan inshoot joriy yilning yanvar oyida foydalanishga topshirildi.

— Eski bino, umuman, talabga javob bermay qolgandi, — deydi shifoxona bosh

shifokori Alisher Boygʻoziyev. — Sharoitlari ham haminqadar, xonalar zax va sovq edi. Shu yigitga rahmat. Hech ikkilanmasdan oʻz hisobidan bino qurib berdi. Bu yerdagi bino talabga javob bermagani bois, oldin oilaviy shifokorlik punkti Bahoriston qishlogʻida edi. U yerga borish uchun qishloq odamlariga oʻlislik qilardi. Bugun esa oʻrtaliqda, barcha uchun maʼqul joyda qurildi. Hozir bu inshootni Bahoriston oilaviy shifokorlik punkti Qoraburuq filiali sifatida foydalanishga qabul qildik. Ayni paytda uch mingdan ziyod aholiga xizmat koʻrsatmoqda.

Yangi tibbiyot muassasasida bemorlarga kunduzgi statsionar tartibda xizmat koʻrsatishga ham imkoniyat yaratilgan. Eng asosiysi, endi odamlar birgina muolaja uchun uzoqqa qatnab, sarson boʻlib yurmaydi.

— Tibbiyot punkti ishga tushirilishi biz uchun juda qulay boʻldi, — deydi

Murodulla aka. — Oldinlari birgina shifokor maslahati uchun ham kamida ikki-uch soat vaqt sarflab, taksi yoki biror mashinasi bor kishiga iltimos qilib, tuman markaziga borishga majbur edik. Ayniqsa, keksa kishilarni ovora qilib, yetaklab yurardik. Bugun esa qishloqning oʻrtasida shifo maskani qad rostlagani mushkulimizni ancha oson qildi. Buning uchun shu ishga qoʻl urgan yigitga rahmat. Shunday ishbilarmon kishilar elimizda koʻpaysin.

Yosh tadbirkor Dilshod Karimov qishlogʻiga birgina oilaviy shifokorlik punkti bunyod etish bilan cheklanib qolgani yoʻq. U oʻtgan yili yana bir yirik loyihaga qoʻl urdi. Tijorat bankidan ikki milliard soʻmga yaqin kredit olib hamda oʻz hisobidan ikki milliard soʻm sarflab, jami toʻrt milliard

soʻmga yangi 220 oʻrinli xususiy maktab binosi barpo etdi. Bu maktab Qoraburuq qishlogʻida bunyod etilishi chekka hududlardagi yosh iqtidorlarni ham roʻyobga chiqarishga zamin yaratadi.

Ish boshlaganiga ikki oy boʻlgan xususiy maktabda oʻquvchilarning yetarli bilim olishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Xususan, oʻquv-metodik va laboratoriya, individual mashgʻulotlar hamda oʻqituvchilar uchun alohida xonalar qilingan. Ikki qavatdan iborat majmuada 220 oʻquvchi 5-sinfdan boshlab taʼlim olishiga zaruriy sharoitlar muhayyo qilingan.

— Maktabimiz amaliy fanlarga va xorijiy tillarni oʻrgatishga ixtisoslashgan, — deydi Dilshod Karimov. — Hozir malakali oʻqituvchilar tanlov asosida ishga qabul qilinmoqda. Bu jarayonlar yakunlangach, toʻliq tarzda oʻquv mashgʻulotlari boshlab yuboriladi.

Binoning ikkinchi qavatida Chiroqqi tumanidan Germaniyaga ishga borish uchun til oʻrganish istagida boʻlgan yuz nafar yosh uch oylik oʻquv kurslarida ishtirok etmoqda. Ular majmuamizdan bepul foydalanishi

uchun muayyan muddatga kelishib oldik. Maktabimiz yoshlarning bilim olishiga, til oʻrganishiga yordami tegayotganidan xursandmiz. Bu yil maktab binosini qurib oldik. Kelgusi yilda esa olisdan qatnovchi oʻquvchilar uchun yotoqxona barpo etishni rejalashtiryapmiz. Maqsadimiz — bu yerda bilim olayotgan yoshlar hech bir muammoga duch kelmay, faqat oʻqishga vaqt sarflasin.

Joriy yilning yanvar oyidan taʼlim jarayonlari boshlangan ushbu maktabda hozircha bitta sinf shakllantirilib, mashgʻulotlar oʻtilmoqda.

Bir paytlar shunday shinam oʻquv binolari chekka qishloq hududlarida barpo etilishi xayolimizga ham kelmastdi. Yurtimizdagi islohotlar natijasida yosh yigitlar ishbilarmon boʻlib, bugun maktab quraypti.

Yosh tadbirkorning tashabbusi bilan nafaqat 220 oʻquvchi bilim olishi uchun yetarli imkoniyat yaratildi, balki yuzga yaqin kishining bandligi taʼminlandi ham.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Inson qadri uchun

TO‘RT ASR MUQADDAM TUG‘ILGAN AJDODINGIZNI ANIQLASH MUMKIN

Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatiga bir nazar

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Dam olish kunlari televizordan jinoyatchilikka oid bir ko‘rsatuvni ko‘rib qoldim. Tafsilotlariga to‘xtalmayman. Meni hayron qoldirgani, ikki yil oldin sodir etilgan qotillik turli sabablarga ko‘ra, ochilmay qolib ketgan. Oradan ikki yil o‘tib, bir sabab bilan qo‘shining molxonasidan odam ustixonlari solingan qop topildi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda turli savollar tug‘iladi. Bu ustixonlar kimga tegishli, u qachon vafot etgan, agar jinoyat sodir etilgan bo‘lsa, buni kim qilgan?

Albatta, tomoshabinga ham bu qiziq. Endi ustixonlarning tegishligini qanday aniqlash mumkin? Nazarimda, buni aniqlashning iloji yo‘q, degan fikr ko‘pchilikning ko‘nglidan o‘tgan. Shunda Xadicha Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi bo‘limi mudiri mazkur jarayonning qanday kechishini sharhlab berdi. U sud ekspertizasi xodimlari tomonidan bir oy davomida bu ustixonlar kimga tegishli ekani, qotillik qachon, qayerda va qanday sodir etilgani, jinsi va boshqa ko‘plab muhim jihatlar aniqlanganini bildirdi.

Ko‘rsatuvni ko‘rar ekanman, bizda bu sohada keyingi yillarda tub yangilanishlar kechganiga amin bo‘ldim.

Tan olish kerak, mustaqillikdan oldin ham, keyingi yillarda ham xalqimiz uzoq yillar sud-huquq tizimidan hayiqib yashadi, oddiy odamlar adolatsizlikdan ko‘p aziyat chekdi. Qanchadan-qancha begunoh odamlar tizimdagi korruptsiya, manfaatlar to‘qnashuvi, tanish-bilishchilik qurboni bo‘ldi.

Sud majlislari tor xonalarda o‘tdi, sud ekspertizasi xulosalari esa “qorong‘i laboratoriya”larda yozildi. Nohaqlik hukmlar o‘zgartirilmadi. Fikrlar, dalillar, haqiqat bo‘g‘ildi. Shu tariqa odamlarda davlatga, tuzumga ishonch yo‘qoldi. Bu holat oddiy fuqarolar qaddini bukib qo‘ydi.

Ayni manzaralar mamlakat sud-huquq tizimi jiddiy islohotlarga muhtoj bo‘lganidan ishora edi. Nihoyat 2016-yildan bu tizimda ham jiddiy o‘zgarishlar kuzatila boshladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarni o‘z nomiga yarasha tizimga aylantirish maqsadida sohani tubdan isloh qilishga kirishildi. Bu jarayonda qator farmon va qarorlar qabul qilindi, qonunchilikka jiddiy o‘zgartirishlar kiritildi.

Bugun huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar tom ma’nodda xalqchil tuzilmaga

aylandi. Odamlarning odil sudlovga ishonchi yanada ortdi. Haqiqat izlagan minglab fuqarolar maqsadiga erishdi.

Sud ekspertizasi qonun ustuvorligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Markaziy Osiyoda birinchilardan ish boshlagan, 70 yildan ortiq vaqt davomida fuqarolarning haq-huquqlarini ta’minlash, odil sudlovni amalga oshirishga ko‘makchi bo‘layotgan Xadicha Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi uchun o‘tgan yil samarali bo‘ldi.

Markaz 2023-yilda 3 milliondan ortiq obyekt bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazib, 37 mingdan ziyod ekspertiza xulosasi berdi. Ushbu raqamlarning o‘ziyoq sohaga talab organidan dalolat.

Keyingi besh yilda sohani yanada rivojlantirish maqsadida Prezidentning uchta qarori, bitta farmoni qabul qilindi. Bu esa sohadagi normativ hujjatlarni takomillashtirish, sud ekspertizasi kadrlari kasbiy malakasini oshirish, tizimni zamonaviy, yuqori aniqlikdagi tahlil vositalari bilan jihozlash, sud ekspertizasi jarayonida advokatlar va nodavlat sud ekspertlari ishtirokini ta’minlash borasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda sud ekspertizasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, sohani raqamlashtirish, zamonaviy laboratoriyalar tashkil etish borasida salmoqli ishlar qilindi. “Sud ekspertizalari hisobi”, “Elektron ta’lim platformasi” tizimlari joriy etildi.

Aholi va vakolati organlarga sud ekspertizasi faoliyatiga doir ma’lumotlar yetkazish, axborot hamkorligining barcha turlarini ta’minlashga mo‘ljallangan “E-ekspertiza” yagona elektron axborot tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Bu, o‘z navbatida, sohaga axborot texnologiyalarini keng joriy qilish orqali sud ekspertizalarni o‘tkazishga sarflanadigan vaqt qisqarishi, ekspertiza tayinlovchi organlar bilan ekspertlar o‘rtasidagi o‘zaro yozishmalar elektronlashishiga zamin yaratdi. Sud ekspertizasi tashkilotlari o‘rtasida yagona uslubiyot shakllandi va bir xil ish yuritila boshlandi. Bundan tashqari, statistik hisobotlar va ma’lumotlar tezkor shakllantirilishiga erishildi.

Mazkur elektron tizim ishga tushishi bilan sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sud ekspertizasi tashkilotlarining o‘zaro hujjat aylanishi hamda uning xavfsizligini ta’minlashda ijobiy natijalar ko‘zga tashlandi. Shuningdek, sud ekspertlarining ish jarayoni yengillashdi, ortiqcha vaqt va qog‘oz isrofgarchiligining oldi olindi. Shu bilan birga, ekspertiza natijalari haqida tezkor xabar berish, to‘lovlar uchun elektron shartnomalar olish va boshqa bir qancha qulayliklar yaratildi.

Davr o‘zgarishida, texnologiyalar, axborot olish va tarqatish, jinoyat, huquqbuzarliklar turlari ham ko‘paymoqda. Bu esa sud ekspertizasi oldiga yangi vazifalar qo‘ymoqda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasida ham sud hokimiyati mustaqilligini kuchaytirish va faoliyatida ochiqlikni ta’minlash orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish, huquqni



muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini inson manfaatlar, qadr-qimmatlari va huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirish kabi qator vazifalarni bajarish doirasida sud-huquq tizimining ajralmas, muhim bo‘g‘inlaridan biri — sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish borasida qator vazifalar belgilangan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada agar shaxsning o‘z aybini tan olgani unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi ishlar qilindi. “Sud ekspertizalari hisobi”, “Elektron ta’lim platformasi” tizimlari joriy etildi.

Sud-tergov organlari, fuqarolarning talab va ehtiyojlarini ta’minlash maqsadida Samarqand va Xorazm viloyatlarida odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi yo‘lga qo‘yildi.

kafolatlab qo‘yildi. Bu esa sud ekspertizasi tashkilotlarining jinoyatchilikning oldini olish va uni fosh etishdagi mas’uliyati va rolini yanada oshiradi.

— Prezidentimizning 2021-yil 5-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bu yo‘nalishdagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir, — deydi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi direktori Akram Xalilov. — Farmon bilan O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi tasdiqlandi. Uning asosiy maqsadi xalqaro norma va standartlar talablarini hisobga olgan holda sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ishonchli sud ekspertizasi xulosalariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, sud-ekspertlik faoliyatini tizimli takomillashtirib borish, barqaror va ilmiy talabga javob beradigan sud ekspertizasi tizimini shakllantirish, sud jarayonlarida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, qonuniy manfaatlarini himoyasini kuchaytirish hamda sud ekspertlari xolisligi, mustaqilligini ta’minlashdan iborat.

Konsepsiya bilan 2021-2023-yillarda bajariladigan ishlar yuzasidan tasdiqlangan “yo‘l xaritasi”ga ko‘ra, sohadagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, sud-ekspertlik amaliyotini kengaytirish hamda sud ekspertizalarning sifati va ishonchligini oshirish, sohaga oid ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, nodavlat sud ekspertizasi institutini hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, sohaning moddiy-texnik bazasini

mustahkamlash kabi ustuvor yo‘nalishlarda zarur chora-tadbirlar ko‘rildi.

Bunda, avvalo, sohadagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilib, “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqildi hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

Farmon bilan Respublika sud ekspertizasi markazi tuzilmasida Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Instituda har yili kamida 15 ta ilmiy-tadqiqot ishini amalga oshirish, sud ekspertizasi muassasalariga ilmiy-uslubiy ko‘mak ko‘rsatish, uslubiy qo‘llanmalarni tanqidiy ko‘rib chiqish va amaliyotni uyg‘unlashtirish borasida tizimli ishlar qilinmoqda.

Ana shu maqsadda markaz huzurida yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori va fan doktori ilmiy darajalari beruvchi ilmiy kengash tuzildi.

Kengashda jinoyat protsessi, kriminalistika, tezkor qidiruv huquqi va sud ekspertizasi ixtisosligi bo‘yicha ilmiy ishlar himoyalarni o‘tkazishga ruxsat berildi. Institut huzurida mustaqil izlanuvchilar va tayanch doktorantura instituti joriy etildi.

Bundan tashqari, markaz tomonidan hozir irsiy kasalliklarga moyillik, etnogenetik va etnik kelib chiqishni aniqlash, hayvonlar DNKsi yuzasidan tadqiqotlar o‘tkazish, sport genetikasi tadqiqotlari, genetik jihatdan o‘zgartirilgan organizmlar ekspertizasi, ash-yoviy dalillardan biologik izlarni aniqlash borasida ham ilmiy izlanishlar qilinmoqda.

Davlat va nodavlat sud ekspertizasi tashkilotlariga shartnoma asosida jismoniy hamda yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish huquqi berildi. Mazkur yangilik jismoniy va yuridik shaxslarga o‘z huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishda sud ekspertizasidan keng foydalanish imkoniyatini yaratmoqda.

Hozir yurtimizda 25 dan ortiq nodavlat sud eksperti faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, iqtisodiy, fuqarolik va ma’muriy ish yuritishda advokatga sud ekspertizasi tashkilotlarida shartnoma asosida ekspertiza o‘tkazish tashabbusi bilan chiqishga ruxsat berildi. Mazkur huquq odil sudlovni amalga oshirishda tomonlarning tortishuvi, mustaqilligi va qonun ustuvorligi prinsiplarini ta’minlash maqsadida sud va tergov organlaridan mustaqil ravishda ekspertiza tayinlash orqali advokatlarining ish samaradorligini oshirishga zamin yaratildi.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi qarori bilan sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizom tasdiqlandi. Hukumatning tegishli qaroriga asosan, dual, ta’lim prinsipi asosida sud ekspertlarini qayta tayyorlash tartibi ham belgilandi. Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan sud ekspertlari faoliyatini reyting tizimida baholab borish talabi belgilanishi bu boradagi ishlarni yanada jonlantirdi.

Sud ekspertlarining malakasi va huquqiy bilimni zamon talablari darajasida oshirish maqsadida o‘quv markazi faoliyati yo‘lga qo‘yilgani sohada kadrlar faoliyati samaradorligini yaxshilashda muhim omil bo‘lmoqda. Ahamiyatlisi, bu yerda nafaqat davlat sud ekspertizasi muassasalari, balki

yangi tashkil etilayotgan nodavlat sud ekspertizasi tashkilotlari ekspertlari ham qayta tayyorlanmoqda hamda malakasini oshirmoqda.

— Mazkur o‘quv markazining asosiy maqsadi Adliya vazirligi tizimidagi hamda boshqa davlat va nodavlat sud ekspertizasi tashkilotlari ekspertlarining kasbiy malakasi va huquqiy bilimni oshirishdan iborat, — deydi Sud ekspertlarining malakasini oshirish o‘quv markazi mudiri Sanjar Qudratov. — Sohada kadrlarni tayyorlashda dual ta’lim prinsipi tatbiq etilishi sud ekspertlarini bevosita oliy ta’lim muassasalarida kasbiy tayyorlash imkoniyatini yaratadi.

Sud ekspertlari har ikki yilda malakasini oshirib boradi. Bundan tashqari, har yili 10 nafar ekspert xorijiy davlatlarda malaka oshirib kelmog‘da.

O‘quv markazida malaka oshirish kurslaridan tashqari qayta tayyorlash kurslari ham yo‘lga qo‘yilgan.

O‘tgan yili bir qator yangi, zamonaviy jihozlar olindi, — deydi laboratoriya mudiri Asilbek Normatov. — Xususan, yaqinda olib kelingan apparatimiz sakkiz xil rang bo‘yicha genotiplarni aniqlash imkoniyatini beradi. Bu, o‘z navbatida, ko‘proq genetik markerlarni aniqlash, degradatsiyaga uchragan DNK namunalaridan ham yaroqli natija olishni ta’minlaydi. Misol uchun, ayni paytda bir asrli suyak namunalari tadqiqotini o‘tkazyapmiz va yaroqli natijalarga ega bo‘ldik. Bizga fuqarolardan biologik otalik, onalik yoki o‘zining yaqin va uzoq qarindoshlik masalalarini aniqlash bo‘yicha ko‘plab murojaatlar bo‘ladi. Bu jihoz ana shu masalalarni ham yechishga yordam bermog‘da. Ota yoki ona yo‘nalishi bo‘yicha shajarani aniqlab berish imkonimiz bor. Amaliyotimizda 1640-yilda tug‘ilgan odamning 250 dan ortiq erkak avlodini aniqlagan holat ham bo‘ldi.

Albatta, bunday izlanishlar qilish va natijaga erishish uchun maxsus jihozlangan laboratoriyalar kerak. Birgina o‘tgan yili



markazda 3 ta ana shunday laboratoriya tashkil etildi va zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta’minlandi.

Sud-tergov organlari, fuqarolarning talab va ehtiyojlarini ta’minlash maqsadida Samarqand va Xorazm viloyatlarida odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, anonim murojaat qilgan shaxslarni maxsus belgilab bilan qayd etish orqali ekspertiza tadqiqotidan o‘tkazish va mutaxassis fikri berish yo‘lga qo‘yildi. Bu esa murojaatchi shaxsiga doir ma’lumotlar oshkor bo‘lmasligini ta’minlagan holda, ya’ni maxsus belgilar asosida qayd etish orqali tadqiqotlar o‘tkazilishini ta’minlashga imkon yaratadi.

Joriy yil Surxondaryo viloyatida odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi laboratoriyasi, Farg‘ona viloyatida materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi hamda sud-yong‘in, sud-elektrotexnika, sud-lingvistik, sud-filologiya, sud-fonografiya va sud-kompyuter-texnik ekspertiza yo‘nalishlari, Qoraqalpog‘istonda sud-yong‘in, sud-elektrotexnika, sud-lingvistik, sud-filologiya ekspertiza yo‘nalishlari, Xorazm viloyatida sud-xatshunoslik va hujjatlar texnik ekspertizasi, Buxoro viloyatida sud-lingvistik, sud-filologiya ekspertiza yo‘nalishlari, Xorazm viloyatida sud-xatshunoslik va hujjatlar texnik ekspertizasi, Namangan viloyatida

sud-tovarshunoslik va sud iqtisodiy ekspertiza yo‘nalishlarini ochish rejalashtirilgan.

Qayerda yaxshi sharoit yaratilsa, ish sifati va natijadorlik ortadi. Sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning malakali ekspertiza tadqiqotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini hamda jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini inobatga olgan holda sud-kompyuter-texnik, sud-avtomobil yo‘llari, sud-elektrotexnika, sud-psixologik, gaz va elektr texnikasi obyektlarining portlash texnik ekspertizasi, radiotexnika ekspertizasi kabi yangi ekspertiza turlari yo‘lga qo‘yildi. Natijada markazda amalga oshirilayotgan sud-ekspertizasi turlari 44 tadan 57 taga, mutaxassislik yo‘nalishlari 91 taga yetdi.

Markaz laboratoriyalari ISO/IEC 17025 xalqaro standartlari bo‘yicha akkreditatsiyadan o‘tkazilib, muvofiqlik sertifikatiga ega bo‘ldi. Mazkur akkreditatsiya tadqiqotlarni xalqaro standartlar darajasida amalga oshirish hamda laboratoriya tomonidan berilgan xulosalar xalqaro miqyosda tan olinishiga, o‘z navbatida, fuqarolarning huquq va erkinliklari xalqaro sudlarda ham ishonchli himoya qilinishiga olib keladi.

Sohada ilk marotaba sud ekspertizasini standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mita tashkil etilib, markaz MTK-545 Sud ekspertizasini standartlashtirish bo‘yicha davlatlararo kengashga hamda ISO/TC 272 “Forensik sayns” xalqaro texnik qo‘mitasiga a’zolikka qabul qilindi va uning 19-kuzatuvchisiga aylandi. Bular esa sohaga xalqaro standartlarni joriy qilish imkoniyatini yanada oshiradi.

O‘tgan yili Malayziyaning Kuala-Lumpur shahrida o‘tkazilgan Osiyo sud ekspertizasi tarmog‘i yalpi yig‘ilishida O‘zbekistonda sud ekspertizasi sohasida kechayotgan islohotlar hamda markaz faoliyati taqdimot qilindi.



Yangi tajriba

QUYOSH FERMA LARI

Ular tom usti va ostida qanday foyda keltiradi?



Abdurauf QORJOV,
sharhlovchi

Joylarda quyosh panellari o‘rnatish bo‘yicha ishlarni yanada kengaytirish, aholining “yashil energiya” dan foydalanish borasidagi intilishlarini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Bu boradagi innovatsion yondashuvlar yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.

Shu bois, joriy yil 28-fevral kuni Prezidentimiz raisligida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko‘paytirish bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda bu maqsadlarga erishish uchun qo‘shimcha 50 million dollar resurs ajratish, xorijiy investorlar bilan muzokaralar o‘tkazib, yana 100 million dollar jalb qilish vazifasi qo‘yildi.

Tadbirkorlarga quyosh energiyasidan foydalanishdagi manfaaddorligini oshirish uchun qo‘shimcha yengilliklar yaratilishi belgilandi. Jumladan, quyosh paneli, inverter va akkumulyatorlarni import qilishda bojxona imtiyozlari yana besh yilga uzaytirildi.

Elektr iste‘moli yuqori bo‘lgan qishloq va suv xo‘jaligi, ichimlik suv ta‘minoti korxonalari “yashil energiya” quvvatlarini ko‘paytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar ularni izchil takomillashtirib borishni, yangicha yondashuvlarni kun tartibiga qo‘ymoqda. Masalan, qishloq xo‘jaligida quyosh panellarini o‘rnatish, ya‘ni “agrovoltaika” dan foydalanish ikki karra manfaat keltiradi. Tomga o‘rnatilgan panellar elektr quvvati bilan ta‘minlasa, uning ostidagi yerga ekin ekib, hosil olish mumkin bo‘ladi.

Olimlar ta‘biri bilan aytganda, agrovoltaika yoki “quyosh ferma”lari — bu quyosh panellari qishloq xo‘jaligi uchastkalarida yoki ekinlar ustida o‘rnatiladigan, bir vaqtning o‘zida elektr energiyasini ishlab chiqaradigan va ekinlarni noqulay ob-havo, quyoshning zararli nurlaridan himoya qiladigan, bug‘lanishni kamaytirib, ularning o‘sishi uchun qulay shart-sharoit yaratadigan kombinatsiyalashgan tizimdir.

Bu tajriba xorijiy mamlakatlarda allaqachon o‘z samarasini bermog‘da va yurtimizda ham o‘rganilmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, mamlakatimizda 10 gigavattli agrovoltaika salohiyati mavjud.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko‘paytirish bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda mutasaddilarga joriy yilda 6 ta tumanda agrovoltaika usulida pilot loyihalarni boshlash topshirildi. Buning uchun xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda, energiya sarfi yuqori bo‘lgan sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqilishi belgilab berildi.

E’tirof etish joiz, 29-fevral kuni Prezidentimizning Xorazm viloyatiga tashrifi chog‘ida Fransiyaning “Voltalia” kompaniyasi tomonidan quvvati 100 megavattlik quyosh elektr stansiyasi qurilishiga tamal toshi qo‘yish marosimi bo‘lib o‘tdi. Bu vohadagi ilk shunday yirik loyiha hisoblanadi. Uning natijasida yiliga 254 million kilovatt-soat “yashil energiya” ishlab chiqariladi. Bu esa Xorazm viloyati yillik elektr energiyasi iste‘molining 11 foizini qoplaydi. Ushbu stansiyani yil yakunigacha tarmoqqa ulash rejalashtirilgan.

Umuman, bu loyiha ishga tushsa, Xorazm viloyatida elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvati 30 foiz oshib, 424 megavattga yetadi. Xususan, Tuproqqal’a tumanining elektr quvvatiga bo‘lgan yillik 135 million kilovatt-soat talabi to‘liq qondiriladi. Iste‘molidan ortgan 40 foiz energiyani qo‘shni tumanlarga uzatish mumkin. Bu bilan yana 85 ming xonadonni elektr energiyasi bilan barqaror ta‘minlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Binobirani, uni amalga oshirish orqali 76 million kub metr tabiiy gaz tejaldi, atmosferaga 106 ming tonna zararli moddalar chiqishining oldi olinadi.

Yana bir e’tiborli tomoni, mazkur loyiha doirasida ilk bor agrovoltaika tajribasi qo‘llanadi. Ya‘ni quyosh panellari ostida energiya va qishloq xo‘jaligini birlashtirish usuli asosida sabzavot va poliz ekinlari yetishtiriladi.

Davlatimiz rahbari bunday innovatsion loyihalar O‘zbekiston bilan Fransiya o‘rtasidagi ko‘pqirrali hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilishini ta’kidlab, investor va muhandislarga minnatdorlik bildirdi.

— Barchangizni nafaqat Xorazm viloyati, balki butun mamlakatimiz iqtisodiyotiga yangi ruh va nafas olib kiradigan mana shunday yangi quvvatlar bilan tabriklayman, — dedi Prezidentimiz.

Xorijiy tajriba

Agrovoltaika g‘oyasi 1982-yilda nemis olimlari A.Getsberger va A.Zastrou tomonidan quyosh stansiyalari joylashgan maydonning o‘zida ularidan hosildorlikni oshirishga yordam beruvchi vosita sifatida ilgari surilgan. U ekinlarga quyuv soya tushishining oldini olish maqsadida quyosh kollektorlarini yerdan ikki metrga ko‘tarish va ular oraliq‘ini kengaytirishni nazarda tutadi. Bu,



ayniqsa, aholi tig‘iz yashaydigan yoki yerlar cheklangan hududlarda quyosh energiyasi imkoniyatlaridan samarali foydalanish, kichik ekin maydonida elektr energiyasi ishlab chiqarishda qo‘l keladi.

Masalan, olimlarning hisob-kitobicha, Hindistonda amalga oshirilgan loyiha tufayli 34 ming gektar uzumzorda quyosh panellarining quvvati 16 ming GVT/soatni tashkil etib, buning natijasida 15 million aholining elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyoji qoplanadi. Bunda 1 gektar joyda ishlab chiqarilgan 0,47 GVT/soat elektr quvvati 500 kishini ta‘minlashga xizmat qilishi inobatga olingan.

O‘z navbatida, ushbu uslub qurg‘oqchil hududlarda yetishtiriladigan qishloq xo‘jaligi ekinlarini kuchli radiatsiya nurlaridan asrash va suv yo‘qotilishining oldini olishda ham asqatadi. Chunki ilmiy tadqiqotlar ekinlarni o‘ftob nuridan me‘vorida saqlash yerdagi namlik ko‘tarilishini 40 foizga kamaytirishini va suvni tejash imkonini berishini amalda ko‘rsatdi, hosildorlik esa 70 foiz oshgan.

2004-yilda Yaponiyada bir qator ixcham agrovoltaika — APV korxonalari paydo bo‘ldi. Bu tizim uch metr oraliqda tiklangan tayanch ustunlar ustiga o‘rnatilgan fotoelektr panellaridan iborat bo‘lib, ular ostida baqlajon, pomidor, bodring, karam kabi ne‘matlar yetishtirishga kirishildi. Tajriba samarasidan kelib chiqqan holda, 2013-yildan boshlab besh yil mobaynida davlatning qo‘llab-quvvatlashi bilan 1900 dan ortiq quyosh fermalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Ana shu davrda va hozirgi kunda Amerika, Yevropa, Osiyo va Afrikaning o‘nlab mamlakatlarida bu tajribadan foydalanib kelinmoqda. Bu borada AQSH, Fransiya, Xitoyda qilinayotgan ishlar namuna bo‘la oladi. Xususan, Fransiya Agrovoltaika uyushmasi faoliyat yuritadi. Asosiy maqsad mazkur texnologiyani

odamlar va hokimiyat uchun manfaat keltirishini qo‘llab-quvvatlash, uni keng yoyishdan iborat. Aytish joiz, mamlakatda agrovoltaikadan foydalanishning standart talablari va huquqiy asoslari ishlab chiqilgan.

AQSHning Arizona sahrosida o‘tkazilgan tadqiqotlar quyosh panellari ostida bir qator ekinlar yetishtirish suv sarfini 30-50 foiz kamaytirishini amalda isbotlagan. Chunki soya salqin havro harorati va ko‘proq tuproq namligi bo‘lgan qulay mikroiklim yaratadi, bunday holatda suv kamroq bug‘lanadi. Natijada fermerlarda ekin yetishtirish uchun suvga ehtiyoj kamayadi, bu kam yoki notayin yog‘ingarchilik mavsumida o‘ta zarur. Bundan tashqari, qurg‘oqchil sharoitda tuproq unumdorligi yaxshilanadi va yil davomida yuqori hosil olish imkoniyati yuzaga keladi.

Xitoyda esa bu texnologiyani tatbiq etishning ko‘lamini va qamrovi katta. Ayni paytda eng yirik sanalagan, quvvati 700 MVT. bo‘lgan APV texnologiyasi 2017-yilda Nansi avtonom hududida o‘rnatilgan. Hozirga kelib, uning quvvati 1 GVT ga yetkazilayapti.

Loyiha ijrochilari bo‘lgan “Baofeng Group” va “Huawei” kompaniyalari mutaxassislarning qayd etishicha, quyosh panellarining ishlash jarayoni xuddi o‘ftob nuri ortidan intiluvchi kungaboqarnikiga o‘xshab ketadi. Bu fotoelementlar samaradorligi va elektr quvvati hosil qilish generatsiyasini oshiradi. Qariyb uch metr balandlikka o‘rnatilgan quyosh panellari dalada hosil yetishtirish va uni yig‘ib olish ishlariga xalaqit bermaydi.

Ma‘lumotlarga qaraganda, loyiha yakuniga yetgach, u yiliga 557,6 ming tonna ko‘mir yoqilg‘i-sini tejash, havoga 2 million tonnaga yaqin zararli moddalar va chang tashlanishining oldini oladi. Hosildorlik salmog‘i esa tobora ortib bormoqda.

2022-yilga kelib, APVning jahon bozoriga hajmi 3,17 milliard dollarni tashkil etdi. Bu

miqdor yiliga 12-15 foizga o‘sib, 2030-yilga borib qariyb 9 milliard dollarga yetishi kutilyapti. Boshqa manbalarga ko‘ra, 2027-yilga qadar yangi tizimning o‘rtacha yillik o‘sishi qariyb 40 foizdan kam bo‘lmisligi mumkin.

Ayni chog‘da olib borilayotgan tadqiqotlar APVni qo‘llash tufayli quyosh nurining to‘silishi turli qishloq xo‘jalik ekinlari parvarishida jug‘rofiy va iqlimiy sharoitlarni inobatga olish lozimligini ko‘rsatmoqda. Misol uchun, quyosh nurining 20 foizga kamayishi guruch va bug‘doy hosildorligi shuncha foiz pasayishiga olib kelgan. Kartoshka yetishtirishda esa, aksincha, hosildorlik oshgan. Qurg‘oqchil iqlim sharoitida o‘tkazilgan tajribalar quyosh nuri to‘la to‘silganiga qaramay, uning ostida yetishtirilgan pomidor hosili 25-26 foiz ko‘p bo‘lgan.

Lekin baribir o‘ftob nurining yuqori darajada to‘silishi (50-75 foiz) ekin hosildorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Shu bois, Xitoyning Chjesyaning universiteti professori Yue-Rong Lyan: “E’tibor qilish kerak bo‘lgan eng muhim narsa ekin turlaridir”, deydi.

AQSHning Bruklings instituti hisobotiga ko‘ra, quyosh energiyasi ishlab chiqarish birligi ko‘mir yoki tabiiy gazda ishlaydigan elektr stansiyalariga qaraganda kamida 10 barobar ko‘proq joy talab qilishi mumkin. Natijada dehqonchilik uchun kamroq yer qoladi va fermerlarga bu usul yoqmasligi tayin. Ularga atmosferaga kamroq uglerod chiqaradigan elektr olish usuli kerak. Ammo ekinlar uchun ham yer zarur. Shunday bir sharoitda oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun energiya quvvatini yo‘qotish muammoga aylanadi.

Yerdan ekinlar uchun ham yer zarur. Shunday bir sharoitda oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun energiya quvvatini yo‘qotish muammoga aylanadi. Yerdan ekinlar uchun ham yer zarur. Shunday bir sharoitda oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun energiya quvvatini yo‘qotish muammoga aylanadi.

O‘zbekiston sharoitida bu tizim qanday imkoniyatlarga ega?

O‘zbekistonda iqlim sharoiti va quyosh energietikasi salohiyatini hisobga olgan holda, agrovoltaikani rivojlantirish qishloq xo‘jaligi va ekologik barqarorlikni ta‘minlashning muhim istiqbolli imkoniyatlaridan biri hisoblanadi.

— Mamlakatimizda agrovoltaikadan foydalanish bir qator afzalliklarga ega, — deydi ekspert Shahzod Shuhratbekov. — Birinchidan, diyorimiz o‘zining quyoshli iqlimi va qishloq xo‘jaligi hududlari tufayli yuqori o‘ftob energiyasi salohiyatiga ega. Quyosh fermalarini joylashtirish uchun ushbu yerlardan foydalanish elektr quvvati ishlab chiqarishni oshiradi, ko‘mir va gaz kabi an’anaviy energiya manbalariga qaramlikni kamaytiradi.

Ikkinchidan, agrovoltaika qishloq xo‘jaligi uchun bir qancha imkoniyatlar yaratadi. Dalalarga

quyosh panellarini o‘rnatish o‘simliklar uchun soya va himoyani ta‘minlaydi, bu, ayniqsa, yuqori harorat va quyosh nuri ekinlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan issiq hududlarda muhimdir. Shuningdek, agrovoltaikadan foydalanish agrar tarmoqda suv sarfini kamaytiradi, chunki bug‘lanish kamayadi va tuproqdagi namlik saqlanib qoladi.

Yana bir jihati, uning chorvachilikda qo‘llanilishi “yashil” maydonlarni kengaytiradi, cho‘lu biyobonlarda boqilayotgan chorva mollari uchun tabiiy ozuqa yerlarini hosil qiladi, jazirama issiqda soya-salqin joy vazifasini o‘taydi.

Uchinchidan, agrovoltaikani rivojlantirish qishloqlarda yangi ish o‘rinlari yaratish va infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qiladi. Quyosh fermalarini o‘rnatish va ularga xizmat ko‘rsatish energetika, qishloq xo‘jaligi mutaxassislari o‘rtasida hamkorlikni talab qiladi, agrar sohaning rivojlanishi va iqtisodiy o‘sishiga yordam beradi. Fermerlar daromadi oshadi. Ular ortiqcha energiyani sotishdan ham foyda olishi mumkin bo‘ladi.

Ma‘lumki, 2023-yilda “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, ularda agrovoltaikani rivojlantirish uchun ham qulay muhit yaratilishi nazarda tutilgan. Xususan, ushbu texnologiya yordamida ishlab chiqarilgan elektr quvvatlarini sotib olish uchun imtiyozli narxlar belgilangan.

Ayni paytda O‘zbekistonda agrovoltaikani tatbiq etishga doir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. O‘tgan yili Toshkent viloyatida uzumzorda o‘rnatilgan tajribaviy loyiha ana shulardan biri sanaladi. Uning doirasida 10 gektar maydonga quvvati 1 MVT ga teng bo‘lgan quyosh panellari o‘rnatildi va ular ostida uzum yetishtirildi.

Yaqin istiqbolida bu tajribani yanada kengaytirish choralari ko‘rilyapti. Yuqorida qayd etilganidek, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko‘paytirish bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda joriy yilda 6 ta tumanda agrovoltaika usulida pilot loyihalarni boshlash vazifasi topshirildi.

Mazkur texnologiyani barqaror rivojlantirish bir qator ishlarni amalga oshirishni ham kun tartibiga qo‘ymoqda. Eng avvalo, agrovoltaika vositalarini o‘rnatish va ularidan foydalanishni tartibga solishni o‘zida mujassam etgan normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish zarur. Bu borada Vazirlar Mahkamasining qarori tayyorlanayotganini ayni muddao bo‘lmoqda.

Tabiiyki, ushbu hujjatda yangi tajriba davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, agrovoltaikani joriy etayotgan fermerlarga moliyaviy va texnik yordam ko‘rsatish, texnologiyani samaradorligi va manfaaddorligini oshirish maqsadida olib borilayotgan tadqiqotlarni davom ettirish uchun zarur ilmiy-amaliy sharoit yaratish kabi masalalar ham o‘z ifodasini topadi.

Tomorqa — xazina

Buxoro tumanidagi Rabotak mahallasida yashovchi Beshim Ahmedov tomorqasidan yaxshigina daromad olayotgan xonadon egalaridan biri. U qariyb 20 yildan buyon telekommunikatsiya bog‘lamasi korxonasida ishlaydi. Shu bilan birga, 10 sotix tomorqasidan ham unumli foydalanib kelmoqda. Hozir tomorqasining olti sotixiga kartoshka, to‘rt sotixiga sarimsoqpiyoz, piyoz va ismaloq ekan.

— Hovlimizning bir qarichi ham bo‘sh turmaydi. Turli mevali daraxtlardan tortib, poliz ekinlariyu ko‘katlargacha o‘zimiz yetishtiramiz. Ro‘zg‘ordan ortganini bozorda sotamiz. Mehnatimiz xonadonimizga baraka bo‘lib kiriyapti, — deydi Beshim Ahmedov. — Imtiyozli kredit olib, tomorqa uchun mo‘ljallangan kichik texnika vositalari xarid qilmoqchi edim, yaqin kunlarda bu rejama amalga oshadi.

Rabotak mahallasida yashovchi Ro‘zi ota Sherov hozir nafaqada. Ko‘p yillar yong‘in xavfsizligi tizimida xizmat qilgan otaxon esini tanit-

ganidan buyon dehqonchilik bilan shug‘ullanadi. 6 sotix issiqxonasi ham bor. Bu yerda sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtiradi. Tomorqasidan orttigan daromadi evaziga 4 farzandi oliy ma‘lumotli va uyli-joyli bo‘ldi. Ular xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida mehnat qilmoqda. Yerga mehr bergan odam uchun ona zamin ham xazinasi o‘chadi, degan gap bejiz aytilmagan. Butun oilasini birgina tomorqa orqasidan keladigan daromad bilan boqish uchun ham harakat qilish kerak.

— Nafaqaga chiqqach, butun kuchimni yana shu issiqxonaga qaratdim. “Issiqxonadan to‘rt marta hosil olsa bo‘ladi”, deyishganida ishonmagandim, ammo uddalasa bo‘larkan. Faqat mehnat bilan. O‘tgan yili buni shaxsan o‘zim tajriba qilib ko‘rdim. Sarimsoqpiyoz ekib, 9 million so‘m daromad oldik, ortidan bodring ekdik. Undan keyin kartoshka, kartoshkadan bo‘shagan yerda yana ko‘kat yetishtirdik. Xullas, bir yilda 80 million so‘mga yaqin sof foyda oldik.

Mehr berib harakat qilinsa, mehnatning tagi rohat. Bugungi kunda odamlar yerdan foydalanish va mo‘may daromad olish hadisini yaxshi olgan.



Laziz Jo‘rayev 33 yoshda. U ham shu mahallada yashaydi. Yosh bo‘lishiga qaramay, issiqxonada mahsulotlar yetishtirish bo‘yicha mahallada unga teng keladigani yo‘q.

— 5 sotix yerimizda issiqxona qurib, ish boshladik. O‘sha yili agrotexnikani yaxshi bilmaganim, ekin ekishda ba’zi jihatlariga e’tibor qaratmaganim uchun hosilimiz



uncha yaxshi bo‘lmadi. Keyingi yili tajribali issiqxonachilar bilan maslahatlashib ish tutdik. Ular o‘rgarganidek qilib ekin ekdik. Parvarishini ham obi-tobida qildik. Natija chakkli bo‘lmadi. 2023-yilda barakali va mo‘l hosil oldik, tomorqamizdan 6 tonna pomidor chiqdi. Sof foydamiz 50 million so‘mdan ziyod bo‘ldi. O‘tgan yilning sentabr oyida yetishtirgan bodringdan 3 tonnaga yaqin hosil ko‘tardik, daromadi 30 million so‘mdan oshdi. Bu yil hosildan yanada ko‘proq daromad olishni ko‘zlayapmiz.

Ha, yugurgan odam hech qachon quruq qolmaydi, intilganiga esa tole yor. Yaxshi yashayman, oilamni to‘kin qilaman, deganlarga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda, imkoniyatdan unumli foydalanilgan esa xonadoniga fayz-u baraka olib kirmoqda.

— Rabotak mahallasida yashovchilar tomorqasidan har yili barakali hosil oladi.

Yaqinda aynan shu mahallaga viloyat hokimi kelib, aholi bilan suhbatlashdi va xonadonlar misolida mahallani “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyiliga ixtisoslashtirish, daromadni yanada oshirish, ekin turlarini ko‘paytirish va yiliga 4 martagacha hosil olishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha bir qancha ko‘rsatma va topshiriqlar berdi, — deydi Buxoro tumani hokimi matbuot kotibi Murodjon Qosimov. — Bunda, avvalo, “mahalla yetiligi” faollik ko‘rsatishi, tomorqalardan samarali foydalanishni tashkil etish bo‘yicha yangi tashabbuslarni ilgari surishi zarurligi ham ta’kidlandi.

Chindan ham bugun odamlar yerdan foydalanish va mo‘may daromad qilish hadisini olgan. Galdagi vazifa esa ularning boshini biriktirib, muayyan maqsad sari yo‘naltirish.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Tahlil

RAQAMLI DAVR MUAMMOLARI

Ularning yechimi zamonaviy va sifatli ta’limda



Shahriyor MUHAMMADJONOV,
Ta’limni rivojlantirish respublika
ilmiy-metodik
markazi bo’lim boshlig’i

Texnologiya barcha jabhalarning ajralmas qismiga aylangan raqamli transformatsiya davrida ta’lim sohasi ham jiddiy o’zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Xususan, COVID pandemiyasi, ayniqsa, ta’lim jarayonini raqamlashtirish bo’yicha sezilarli o’zgarishlarni amalga oshirishga turtki bo’ldi. Albatta, bir necha oy ichida ta’lim beruvchilar va ta’lim oluvchilar o’rtasida uzluksiz aloqa o’rnatishga qodir bo’lgan aniq va izchil tizimni yaratish deyarli imkonsiz.

Masofaviy ta’lim shakllariga moslashish jarayonida yuzaga keladigan asosiy cheklavlarni bir necha xarakterli jihatlar bilan tavsiflash mumkin: raqamli aloqa vositalari bilan jihozlashning, zarur raqamli-elektron resurslarning yetarli emasligi, raqamli savodxonlikning pastligi, mustaqil ta’lim olish imkonini beruvchi platformalar va boshqa manbalar kamligi, o’quv jarayonini tashkil etish va nazorat qilish tizimining samarasizligi va boshqalar.

Ta’limni raqamlashtirish ta’lim oluvchilar faolligini oshirish, shaxsa qaratilgan ta’lim va yangi o’qitish usullaridan foydalanishni o’z ichiga oladi. Shuningdek, raqamlashtirish ta’lim tashkilotiga innovatsion o’qitish usullaridan foydalanish imkonini beradi. Bu usullardan ta’lim oluvchilarga murakkab tushuncha va nazariyalarni tushunishni osonlashtiradigan interaktiv ta’lim tajribasini yaratish uchun foydalanish mumkin. Raqamli vositalar va platformalarni o’zlashtirish nafaqat ta’lim imkoniyatlarini kengaytiradi, balki raqamli muhitda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish va mulotot qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois, davlat siyosati va ta’limni raqamlashtirishga sarmoya kiritish dunyo mamlakatlari, jumladan, O‘zbekiston uchun ham muhim.

Bu bo’yicha bir qator rivojlangan davlatlar tajribasini alohida ko’rsatib o’tish lozim. Turli mamlakatlardagi raqamlashtirish strategiyalari milliy xususiyatlarni hisobga oladi, lekin ta’limning qulayligi va sifatini oshirish, ta’lim oluvchilarni raqamli jamiyatda hayotga

Dunyo to’rtinchi sanoat inqilobi davriga o’tdi, bu esa ko’plab faoliyat turlarini amalga oshirish uchun oldimizga alohida shartlar qo’ymoqda. Avvalo, sanoat sohasi va umuman, iqtisodiyot sektori o’zgarishlarga ega bo’ladi, ammo malakali kadrlar tayyorlamasdan bu sohalarini o’zgartirish mumkin emas. Global raqamlashtirishga e’tibor qaratgan holda, sohalar bo’yicha kadrlarni tayyorlashda ta’limni rivojlantirish bo’yicha yangi strategiya ishlab chiqish, jumladan, o’qitishning zamonaviy shakli va uslublarini joriy etish, ta’lim tizimini raqamlashtirish eng dolzarb masalalardan biri, desak mubolag’a bo’lmaydi.

tayyorlash, bilim va ko’nikmalarini oshirish asosiy maqsad hisoblanadi. Masalan, Yevropa Ittifoqi aholining barcha qatlamlarida raqamli ko’nikmani oshirish va ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan “Raqamli ta’lim — 2021-2027” strategiyasini faol amalga oshirmoqda. Finlyandiya umumiy o’rta ta’lim muassasalarida o’yin (gymifikatsiya)ga asoslangan o’qitish usullari va raqamli vositalardan faol foydalaniladi, bu esa ta’lim oluvchilarga nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko’nikmalarni ham rivojlantirish imkonini beradi.

Estoniyadagi umumiy o’rta ta’lim muassasalari zamonaviy vositalar va texnologiyalar bilan jihozlangan, o’quv rejalariga esa boshlang’ich sinflardan boshlab dasturlash kurslari kiritilgan. Shuningdek, barcha yoshdagi ta’lim oluvchilar uchun ko’plab onlayn ta’lim resurslarini taklif qiladi. Buning natijasida Estoniya ta’limni raqamlashtirish bo’yicha jahon reytingida yetakchi o’rinlardan birini egallamoqda.

Ta’lim sohasidagi innovatsiyalar bilan mashhur bo’lgan Singapur davlati “FutureSchools@Singapore” dasturini joriy

qodir ishchi kuchini tayyorlashga e’tibor qaratish bilan birga, o’z ta’lim tizimlariga raqamlashtirishni qanday moslashtirayotganini ko’rsatadi.

Zamon talabidan kelib chiqib, mamlakatimizda barcha tarmoq va sohalarida, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim va sog’liqni saqlash tizimlarini raqamlashtirish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, o’rganilgan ta’lim va davlat boshqaruvi, bank, moliya, geologiya, kadastr kabi sohalarini raqamli transformatsiya qilish doirasida 100 ta dasturiy loyiha ishlab chiqilgan. 500 dan ziyod yangi IT kompaniyalari tashkil etilib, sohaga 475 million dollar to’g’ridan to’g’ri xorijiy investitsiya kirib kelgan.

Ta’lim muhitini raqamli o’zgartirish O‘zbekistonda ta’limni barqaror rivojlantirishning asosiy yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo’nalish ta’lim sifati va boshqarish bilan bog’liq muammolarni, masofaviy va mustaqil ta’limni hamda raqamli pedagogikani rivojlantirishda qo’l keladi. Bundan tashqari, ta’lim oluvchi, ta’lim beruvchi va ota-onaning yoshiga bog’liq psixologik-pedagogik xususiyatlariga moslashtirilgan



qildi. Ushbu dastur innovatsion o’qitish usullarini ishlab chiqish va ta’lim oluvchilar o’rtasida mustaqil ta’lim va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradigan shaxsa yo’naltirilgan ta’lim muhitini yaratish uchun raqamli texnologiyalar qo’llaniladigan kelajak maktablari barpo etishga qaratilgan. Finlyandiya umumiy o’rta ta’lim muassasalari o’quv dasturining bir qismi sifatida raqamli savodxonlik fanini o’z ichiga olgan ta’lim tizimi bilan mashhur bo’ldi.

Bu loyihalar orqali mamlakatlar raqamli ko’nikmalarini rivojlantirish, ta’lim sifati va qulayligini oshirish hamda tez o’zgarib borayotgan texnologik dunyoda ishlashga

raqamli ta’lim resurslar kontentini yaratish ko’zlangan.

Ushbu islohotlarning davom ettirilishi hamda Prezidentimiz belgilab berayotgan ustuvor vazifalar ijrosi sifati ta’minlanishi yurtimizda ta’limning yuqori cho’qqilarga chiqishiga, eng asosiy, yoshlarimiz xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadr bo’lib yetishishiga xizmat qiladi. Davlatimiz rahbari qarori bilan tashkil etilgan Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi ham ushbu maqsadlarga erishishda o’z hissasini qo’shishni boshlab, bu yo’nalishda ta’lim sohasining lokomotivi vazifasini bajarishga kirishgan.



Xususan, Markaz zamonaviy va samarali ta’lim tizimini yaratishga intilib, raqamli ta’limni faol rivojlantirmoqda. Ushbu jarayonning bir qismi sifatida asosiy ustuvor yo’nalishlar belgilanmoqda.

Birinchi — ta’limga oid axborot tizimlarini integratsiyalash va yagona ta’lim platformasini joriy etish. Asosiy maqsad — barcha ta’lim tizimidagi axborot tizimlarini o’zaro, jumladan, boshqa axborot tizimlari hamda virtual laboratoriya kabi platformalar bilan to’liq integratsiya qilish orqali takomillashtirish, ulardan yagona kirish nuqtasi orqali foydalanish imkoniyatini yaratish hamda umumiy o’rta ta’lim muassasalarida raqamli ta’limni rivojlantirish maqsadida yagona integrallashgan ta’lim platformasini amaliyotga tatbiq etish.

Ikkinchi — raqamli ta’lim resurslarining sifat va samaradorligini baholash. Bunda raqamli ta’lim resurslari va ulardan foydalaniladigan pedagogik dasturiy vositalarga qo’yiladigan yagona talab ishlab chiqiladi hamda barcha maktab darsliklari, jumladan, yangi avlod darsliklari raqamli shaklga o’tkazilishiga erishiladi. Raqamli ta’lim resurslari ishlab chiqilgan talablar va xalqaro standartlarga mosligini ekspertizadan o’tkazish mexanizmi yo’lga qo’yiladi. Shu jumladan, barcha raqamli ta’lim resurslarining sifat va samaradorligini baholash jarayonini to’liq raqamlashtirish orqali monitoringi yuritiladi.

Uchinchi — pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish. Ushbu yo’nalishda pedagog kadrlarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o’qitishning innovatsion usullari hamda dars jarayonida interfaol ta’lim resurslari va usullaridan foydalanish bo’yicha ko’nikmalarini shakllantirish maqsadida raqamli kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirib borish mexanizmini yo’lga qo’yish, shuningdek, pedagog kadrlarning ommaviy ochiq onlayn kurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish hamda raqamli savodxonlik bo’yicha mahalliy va xalqaro sertifikatga ega bo’lishlariga ko’maklashishni o’z ichiga oladi.

To’rtinchi — innovatsion texnologiyalar bilan jihozlash bo’yicha takliflar ishlab chiqish. Maqsad umumiy o’rta ta’lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalar, multimedial va interfaol ta’lim resurslari, ta’lim o’yinlari, virtual laboratoriya va shu kabi yangi raqamli texnologiyalardan foydalanishni

kengaytirish maqsadida zaruriy texnik jihozlar, dasturiy vositalar bilan ta’minlash bo’yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularning elektron monitoringini yuritish tizimini joriy etish.

Beshinchi — ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish. Jumladan, umumiy o’rta ta’lim muassasalarida muhitni yaxshilash, dars samaradorligini tahlil qilish, vaqtdan umumi foydalanish, bulling (zo’ravonlik)ning oldini olish, o’qituvchilarning darsdagi ishtirokini psixologik tahlil qilish jarayonini sun’iy intellektga asoslangan dasturiy vositaga ega kameralar orqali elektron monitoringini yuritish va umumiy o’rta ta’lim muassasalari rahbariyatini avtomatik ravishda xabardor qilish mexanizmini joriy etishga erishish. Ta’lim oluvchilarning mustaqil ta’lim olishini rivojlantirish, shaxsiy ta’lim trayektoriyasini aniqlash, moslashuvchan va shaxsa yo’naltirilgan ta’limni tatbiq etishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish amaliyotini yo’lga qo’yish.

Ushbu yo’nalishlar doirasida markaz tomonidan ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik dasturiy vositalarni joriy etish maqsadida hozirgi kunda ko’plab xorijiy tashkilotlar va ta’lim platformalari bilan hamkorlik qilish va ularni o’rganish, tahlil qilish, maqbullarini O‘zbekiston ta’lim jarayoniga jalb qilish bo’yicha bir qator ishlarni bajarishga oid istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Markaz va AQSHning Kolorado Boulder universiteti korporativ boshqaruv kengashi o’rtasida o’zaro anglashuv memorandumini imzolandi. Memorandumga ko’ra, Kolorado Boulder universitetiga tegishli Phet platformasidagi simulyatsiyalarni, ulardan foydalanish yo’riqnomasi va metodik qo’llanmalarni o’zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg’iz, tojik, turkman, rus (qardosh) tillariga to’liq tarjima qilish, PhET bilan birgalikda hududlarda o’qituvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan seminar, trening, konferensiyalar tashkil qilish, yangi simulyatsiyalar yaratish va yangilash jarayonini tashkil qilishda ishtirok etish, o’quv darsliklarida simulyatsiyalarga QR-kod yoki boshqa vositalar orqali havolalar qoldirishdan iborat.

Shuningdek, Physics Aviary platformasining muallifi amerikalik tadqiqotchi olim Frank Makkalli bilan ushbu virtual laboratoriya

platformasini va simulyatsiyalarni tarjima qilish hamda O‘zbekiston ta’lim jarayoniga tatbiq etish bo’yicha kelishuvlarga erishildi.

Ushbu jarayonlarni xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlarning grant mablag’lari hisobidan amalga oshirish bo’yicha muzokaralar olib borilmoqda.

Fizika, kimyo, biologiya fanlarini chuqur o’rganishga mo’ljallangan didaktik materiallar va multimedia mahsulotlarining yangi avlodini tayyorlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi bilan hamkorlikda “Pedagogik mahorat va ta’lim texnologiyalari (Phet, Kahoot, Nearpod)” bo’yicha o’zbek va rus tillarida o’quv-uslubiy qo’llanma ishlab chiqildi, tabiiy fanlar bo’yicha alohida qo’llanmalar yaratish ham rejalashtirilgan.

Hozirgi kunda ta’limga oid elektron resurslar 2017-yil 10-noyabrda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining davlat standarti “Elektron ta’lim” milliy tizimiga kiritiladigan elektron metodik komplekslar va boshqa ta’lim resurslariga muvofiq ishlab chiqish ko’zda tutilgan. Biroq ushbu standartda belgilangan ba’zi talablar eskirgani, yangi texnologiyalar vujudga kelgani tufayli uni yangi tahrirda ishlab chiqishga zarurat paydo bo’ldi.

Qisqa muddatda markazimiz tomonidan Raqamli ta’lim resurslari va ulardan foydalaniladigan dasturiy vositalarga qo’yiladigan umumiy talablar ishlab chiqildi. Talablarni ishlab chiqishda respublikamizdagi mavjud standartdan tashqari 10 dan ortiq raqamli ta’lim resurslariga oid xalqaro va xorijiy davlatlarning standartlari tahlil qilindi.

Ushbu talablar ta’limga oid multimedia va raqamli resurslarni yaratish hamda ulardan foydalanish bo’yicha yondashuvlarni, umumiy texnik talablarni joriy qilish maqsadida ishlab chiqildi. Shuningdek, talablarni belgilash orqali innovatsion ta’lim resurslaridan foydalanishni tartibga solish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo’llash, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, ta’limda virtual muhit yaratish, xalqaro tajribada qo’llanayotgan pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Bundan tashqari, multimedia va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish vositalariga ham talablar keltirilgan bo’lib, unga ko’ra, ushbu vositalar LMS, onlayn kurs, chat-bot (ChatGPT, Socra AI va boshqalar) va virtual yordamchilar, simulyatsiya yoki virtual laboratoriya shaklidagi dasturiy mahsulot (veb, mobil yoki kompyuter ilovasi) bo’lishi, uni ishlab chiqishda sun’iy intellekt (AI), bulutli texnologiyalar, gymifikatsiya, virtual, to’ldirilgan va aralash reallik (VR, AR va MR) hamda boshqa innovatsion texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, mualliflik vositalari (Authoring tools) yordamida ishlab chiqilishi inobatga olingan.

Raqamli ta’lim resurslarining ta’lim standarti maqsadi, o’quv dasturlariga mosligi, sifatini baholash keng qamrovli jarayon bo’lib, mazmuni (kontent), uslubiy va texnologik ekspertizasini o’z ichiga oladi.

Ta’limga oid multimedia va raqamli resurslarning ta’lim maqsadiga muvofiqligi, ularning samaradorligini baholash, tahlil qilish markaz tomonidan amalga oshirilishi belgilanmoqda.

Bu yo’nalishlar O‘zbekistonda raqamli davr muammolariga javob bera oladigan zamonaviy, inkluziv va samarali ta’lim tizimini yaratishga qaratilgan raqamli ta’limni rivojlantirish uchun asos bo’lib xizmat qiladi.

chorvasini bemalol topshira olar ekan. Shuningdek, unga onasiga qilingani kabi e’tibor qilishning ham hojati qolmas ekan. Axir u tug’ilibkoq ko’rgan makoni shu va bundan yaxshisini umrida ko’rmagan. Ko’rmagan bo’lsa, qayerga ham keta olar edi?

Cho’ponlarning mazkur usulini nega eslatdim? Sababi, biz ham boshqalarning bergan qandiga uchib, devorimizdagi mixga ilingan talqonimizga noshukrlik qilmaylik. Ularning uslubiy bilan cho’ponlarning uslubiy orasida farq yo’q — kelajak avlodlar erkining uvuliga qolib ketmaylik.

Chegaralari, chegaralaridagi posbonlari, tuprog’iyu dehqonlari, yomg’irlari, qorlari, yaxshi-yomon — barcha insonlari — hamma-hammasi faqat o’zimizniki. Shunday ekan, ota-bobalarimiz ne mashaqqatlar bilan poklagan bu tuproqni nopok qadamlardan himoya qila olmasak, bu biz uchun uyat emasmi?

Do’stlarim, tildoshlarim, havodoshlarim, Vatan himoyasi haqida gap ketar ekan, xoh internet bo’lsin, xoh hayotda bo’lsin, uni himoya etolmay, tilimizni yutib yashashdan ham doim uyalaylik!

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yoshlar minbari

Bugun dunyoda har qanday siyosiy guruhlarining asosiy quroli axborot bo’lib qoldi. E’tibor bersangiz, hozirgi nizolar bir mamlakat ko’shinlarining boshqa mamlakat chegaralariga bostirib kelishi bilan emas, aynan internet maydonida turli ig’volar uyushtirishdan boshlanmoqda. XXI asr — internet asri, deb bejiz aytilmayapti.

Jumladan, o’zbek xalqi, mamlakatimiz sha’niga so’nggi paytlarda aytilayotgan tuturuqsiz gaplar ostida ham ba’zi siyosiy rejalar yotgandek, “sayrayotgan” tillarning ildizi qandaydir manfur a’zolarga borib taqaladigandek.

Axborot shunday jodugar xususiyatlarga egaki, u ommani o’z vositalari orqali

istalgan narsaga ishonitirishi mumkin. Tekshirilmagan faktlarga esa aniq faktlardan bexabar, kitobga oshnoligi yo’q bo’lgan insonlar ikkilanmay ishonadi. Ming afsuski, xalqimiz orasida ham bundaylarning soni hanzu ko’p ekan.

Birgina misol, yaqindagina imperiyaparasht mamlakatning yerparast vakili tomonidan aytilgan o’zbek xalqi tarixi haqidagi asossiz gaplarga ijtimoiy tarmoqlarda “Rostdan shunday bo’lsa-chi?”, deb ishonib o’tirgan vatandoshlarimizni ko’rib hayratga tushdim, bundaylarga buyuk tarix, shonli millat vakili bo’lish qanchalik yarashadi?

Nahotki, umummilliy kayfiyatimizning darpardalari shunchalar nozik, shunchalar tez uchuvchan bo’lsa?! Nahotki, ayrimlarimizda eski tuzum epkinlaridan nafas olish istagi hanzu o’lgani yo’q?!

Shuni hech qachon unutmaylikki, qaramlik har bir insonning eng avval o’zidan



boshlanadi. Qalbi qaramlik dardiga muhtalo bo’lmagan kishining tanasi hech qachon jismoniy qaramlikka ko’nikmaydi, aksincha, buni o’ylash ham uning vujudini tilkalab tashlaydi. Chunki erksizlikning har qanday shakli haqiqiy inson tabiatiga ro’shnolik olib kelmaydi.

Ba’zilarining dunyoqarashi haqida o’y-lab, cho’ponlar orasida eshitganim bir uslub yondiga tushadi. Biror cho’pon ishonchli qo’riqchi it saqlamoqchi bo’lsa, ishini qo’shni cho’ponlardan yoshi kattaroq urg’ochi it olib kelishdan boshlar ekan. Biroq ung qo’ylarini butunlay ishonib tashlab keta olmas, shunga qaramay, yaxshi yedirib, yaxshi qarar ekan. Sababi, u bundan oldin boshqa yerning “havosini olgan”, agar sharoit u yerdan yomon bo’lsa, ketib qolish xavfi yuqori bo’lar ekan. Haqiqiy sadoqatli cho’pon itni ana shu itning bolalaridan tarbiyalar va ularga

BEG‘AMLIK HAM QARAMLIKDIR



Milliy kino

Abdulla Oripovdek buyuk shaxsni xalqimiz yaxshi taniydi, asarlarini sevib o'qiydi, she'rларini yod oladi. Men ham Abdulla Oripov she'riyatining muxlisiman. Ilgari faqat shoir sifatida bilar edim, lekin filmni ishlash jarayonida bu insonni o'zim uchun qayta kashf qildim. Uni nafaqat shoir, balki jonkuyar do'st, mehribon ota, suyuqli umr yo'ldosh, saxovatpesha va oqibatli inson, yuksak fazilatlar sohibi ekanini bildim.



ABDULLA ORIPOVNING HAR BIR O'TGAN KUNINI ALOHIDA film qilsa bo'ladi

YOXUD KINODA INQILOB QILA OLADIGAN ODOM PAYDO BO'LMAGUNCHA, BIZ — KATTA AVLOD NOROZILIGIMIZNI BILDIRAVERISHIMIZ KERAK

“O'ylaymanki, agar virtual olam filmlari yaratilsa, shunda jahon kinosida yana inqilob sodir bo'ladi. Aslida, kinoda inqilob bo'lishi uchun har sohada: adabiyotda, san'atda, sanoatda ilg'or fikrlar, yangi texnologiyalar ko'payishi, umuman, har bir jabhada o'zgarish bo'lishi kerak. Shundagina kinoda ham inqilobni kutsak bo'ladi”, deydi kinorejissyor Muzaffar ERKINOV.



Biz esa qahramonimiz mulohazalariga javoban shunday fikr bildirdik: qalb tug'yonli bitmas-tuganmas iztirob-u kashfiyotlar, munajatlar bulog'idir. Unga talpingan har lahzamiz beparvolikka, yovuzlikka va jaholatga qarshi ko'targan isyonimiz, ma'rifiy-ma'naviy inqilobimizdir. Mazkur suhbatimiz ana shu talpinishlar, izlanishlar maydoni sari tashlangan bir qadam bo'lsa, ajab emas...

— Yaqinda Serbiyada Emir Kusturitsa tashkil qilgan “17-Kustendorf” xalqaro kinofestivalida hakamlar hay'ati a'zosi sifatida ishtirok etdingiz. Muhokamalar chog'ida zamonaviy kino dunyosidagi qaysi muammo va yutuqlar alohida qayd etildi? Mazkur kinofestival g'oliblarining qanday o'ziga xos jihatlari aytib o'tgan bo'lardingiz?

— Avvalo, Yevropaning shunday nufuzli kinofestivalida asosiy hakamlar hay'ati safidan joy olganimdan juda xursandman. Mazkur festival haqida ozgina ma'lumot berib o'tcam. Jahon kino afsonasi Emir Kusturitsa tashkil qilgan “Kustendorf” xalqaro kinofestivali 2008-yildan buyon o'tkazib kelinadi. Festival davridan badiiy filmlar namoyishi va musiqiy chiqishlar joy olgan. Kinofestivalning bosh sovriniga — “Oltin tuxum” (serbcha — “Zlatno jaje”), ikkinchi va uchinchi sovrinlarga esa kumush va bronza tuxumlar taqdim etiladi. Shuningdek, eng yaxshi operatorlik ishi uchun “Vilko Filach” mukofoti beriladi. “Kustendorf” festivali, asosan, yosh kinorejissyorlar ijodiga bag'ishlanadi. Biroq ular orasida tanikli mualliflar ham bor. Emir Kusturitsaning so'zlariga ko'ra, ushbu tadbirni tashkil

qilishga uni kinematografiya va mualliflik kinolari rivojiga xavf tug'dirayotgan saviyasi “yengil” filmlar undagan.

Bu yilgi festival haqida gapiradigan bo'lsam, asosiy ko'rikka har tomonlama zo'r ishlangan 17 ta film saralangan. Ular orasida o'zbekistonlik yosh rejissyor Sherzod Nazarovning “Ipak yo'lida” nomli filmi ham bor. Har bir film o'ziga xos g'oya va badiiy qimmatga ega. Ularning aksariyati Yevropa davlatlarida suratga olingan bo'lsa-da, filmda berilgan milliy kaloritdan qaysi davlat mahsuloti ekanini bilib olish qiyin bo'lmadi. Uch kun davomida har kuni 5-6 tadan film ko'rib, jiddiy muhokama qildik.

Jahon kinosining ilg'or vakillari bilan bir qatorda hakamlik qilish men uchun katta tajriba bo'ldi. Chunki nafaqat o'zimizda, balki kino san'ati kuchli rivojlangan davlatlarda ham tanlov yakunida g'oliblarga faqat sovrin topshiriladi, nima sababdan o'rin berilgani izohlanmaydi. Bu festivalda esa film uchun berilayotgan har bir ballni asoslash, hatto uni yozma ravishda topshirish majburiy ekan. Nima sababdan aynan shu filmga sovrin berilgani izohlanmagan. Bu barcha ishtirokchilar uchun muhim, deb o'ylayman. Chunki festivalning shu tarzda o'tkazilishi orqali har bir ishtirokchi o'z asarining yutuq va kamchiliklari hakamlar hay'ati tomonidan qanday baholanganini bilishi, g'olib bo'lgan filmning qaysi jihati hay'at a'zolari e'tiborini

tortganini o'rganishi, tajriba orttirishi mumkin. Shuningdek, tanlovning shaffof bo'lganiga ishonch hosil qiladi.

Muhokamalar chog'ida zamonaviy kino dunyosidagi bir qancha muammo va yutuqlar alohida ta'kidlab o'tildi. Jumladan, dunyo kinosi, ayniqsa, G'arb kinosi franshiza kinolari va blokbusterlar orqasidan yugurib, badiiyligni yo'qotib qo'yayotgani, katta mablag' topayotgan chet el filmlarida tabiiylik ko'zga tashlanmayotgani, bu esa, o'z navbatida, kinoning san'at emas, sanoatga aylanib borayotgani to'g'risida gaplashdik. Kinematografiyada yangi texnologiyalarni qo'llash yutuq bo'lsa-da, undan haddan ortiq foydalanish kinoni haqiqiy hayotdan ayirib qo'yayotgani haqida fikrlashdik. Festivalda ishtirok etgan filmlarni baholashda ham ularning shu jihatlarga e'tibor berdik.

Masalan, hindistonlik Vivek Raining “Shanti” filmi juda tabiiy chiqqan.

— Ha, haqiqatan ham shunday bo'ldi. Abdulla Oripovning hayoti va ijodini real tasvirlash uchun uning bolalikda yashagan uyini, uy oldidagi hovuzni qayta tiklashimiz kerak edi. Umuman, nafaqat uy va hovuz, balki filmni olish jarayonida davr muhitini yaratish uchun yaqin tarixga ko'p bora murojaat qilishimizga to'g'ri keldi. Kadrlar tarixni jonlantirish uchun o'nlab dekoratsiyalar qurildi. Filmning hayotiy voqealarga asoslangani borasida shuni aytishim kerakki, film qahramoni Abdulla Oripov to'qima obraz emas, u bizning davrimizda yashagan, millatimiz ardoqlagan, O'zbekiston Qahramoni, qo'yingki, Davlat madhiyasini yozgan ulug' shoir bo'lgan. Bunday inson haqida film yaratishda, albatta, to'qima sahnalarga emas, hayotda sodir bo'lgan real voqealarga asoslanmasak bo'lmaz edi. Biografik film yaratish muallif va rejissyordan katta mas'uliyat talab qiladi.



Aktyorlarning ijrosi shu qadar mahoratli ediki, ular bu rollarni o'ynamagan, balki film ichida yashagan, degan taassurot paydo bo'ldi. Hayotiy voqealarga asoslangan kichik hikoya orqali ajoyib syujet o'y-langan. Yana bir muhim jihati shundaki, bu film an'anaviy hind kinosi standartlarini buzgani holda, kam sonli personajlar hamda kameraning sekin harakati orqali hayajonli kinoni yaratga olgan.

— Kunlar ilib, Navro'z sog'inchi yurakni o'rtay boshlagan kezlarda O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripovning tavallud kunini ham nishonlaymiz. 2023-yilda “Abdulla Oripov” badiiy filmni suratga olgan edingiz. Jarayonda sevimli shoirimiz yashagan qadimgi uyni qaytadan qurdirgan ekansiz. Tomoshabinlarning ta'kidlashicha, lav-halarning 80 foizi hayotiy voqealarga asoslangan. Zimmangizga olgan katta mas'uliyat yukidan qanchalik qutuldim, deb o'ylaysiz?

Film tomoshabinlarga taqdim etilgandan so'ng maqtovlar bilan birga, ozmi-ko'pmi dashnom eshitishga ham to'g'ri keldi.

Filmni yaratish jarayonida Abdulla Oripov kabi buyuk shaxslarning hayoti juda sermazmun bo'lishiga amin bo'ldik. Ularning har o'tgan kunini bitta ssenariy qilsa bo'ladi. Filmda Abdulla Oripovning nafaqat shoir, balki inson sifatidagi ko'p qirralari ochildi, ba'zi sahnalar qisqartirildi, uning bolaligi, talabalik yillari, ijodiy faoliyati haqida ikki soatlik film ishlendi, xolos. Biroq Abdulla Oripov haqida bilganlarimizni ssenariy qilsak, uning hayoti va ijodi haqida bitta emas, bir nechta film olish, ko'p qismli serial yaratish mumkin.

Yana bir yangilik — yaqinda Eronning Tehron shahrida bo'lib o'tgan 42-FAJR kinofestivaliga jahonning 87 davlatidan 621 ta film jo'natilgan edi. Ular orasida “Abdulla Oripov” filmi ham bor.

— Ulug' shoir yashagan davr muhitini tasvirlashda jasur va o'tyurak ijodkor

bilan yelkadosh bo'lgan, kurashgan shaxslar obrazini yaratishda sizga kimlar va qanday manbalar yordam berdi? Jarayonda hayratga solgan yangi ma'lumotlar ham uchradimi?

— Birinchi ishimiz buyuk shoirni yaqindan bilgan kishilar bilan suhbatlashish bo'ldi. Eng avvalo, Abdulla Oripovning oila a'zolari: Hanifa aya, qizlari, singillari, jiyanlari, shogirdlari bilan uchrashib, Abdulla aka haqida birov bilgan, birov bilmagan ma'lumotlarni to'pladik. Buning uchun ular bilan minnatdorman. Vaqtlarini ayamay, bor bilganlarini gapirib berishga harakat qilishdi. Ayniqsa, Hanifa aya tasviga olish jarayonida doim yonimizda bo'ldi. Yaqinlardan olingan ma'lumotlardan tashqari biz arxivga borib, Abdulla Oripovga bog'liq hujjatlar bilan tanishdik, kerakli materiallarni yig'dik. Abdulla Oripovning she'riy to'plamlari, ulug' shoir haqida yozilgan maqolalar, chop etilgan kitoblarni o'rganib chiqdik. Shundan so'ng ssenariy yozishga kirishdik.

Albatta, Abdulla Oripovdek buyuk shaxsni xalqimiz yaxshi taniydi, asarlarini sevib o'qiydi, she'rларini yod oladi. Men ham Abdulla Oripov she'riyatining muxlisiman. Ilgari faqat shoir sifatida bilar edim, lekin filmni ishlash jarayonida bu insonni o'zim uchun qayta kashf qildim. Uni nafaqat shoir, balki jonkuyar do'st, mehribon ota, suyuqli umr yo'ldosh, saxovatpesha va oqibatli inson, yuksak fazilatlar sohibi ekanini bildim. Meni hayratga solgan ma'lumotlar juda ko'p bo'ldi. Ulardan biri Abdulla akada qandaydir ilohiy his borligi edi. Yaqin insonlarining aytishicha, Abdulla aka biror voqea sodir bo'lishini oldindan his etar ekan. Misol uchun, bir shogirdi shunday dedi: “Bir kuni qizim og'ir betob bo'lib qoldi. Kasalxonaga yotqizdim. Pulim yo'q. Nima qilishni bilmay, bir ahvolda ishga bordim. O'sha payt Abdulla aka Yozuvchilar uyushmasi raisi edi. Yo'lakda ko'rishib qoldik. Qanday his qildi, bilmadim. Qo'lindan ushlab, xonasiga boshladi va yonidan bir dasta pul chiqarib, “Tortinmay ishlating, inson insonga dalda bo'lishi kerak”, dedi ustoz. Haligacha o'sha paytda pulga muhtojligimni qayerdan bilgani men uchun qorong'ii”, dedi u. Bunday voqealarni ko'p eshitdik. Lekin kinoda vaqt chegarasi borligi uchun shoirning bu qirralarini kengroq ko'rsatishga imkon bo'lmadi.

— “Bu dunyoda barchaning o'z Puankaresi bor. Har kim umri davomida uning gipotezasini yechishga urinadi”, deydi “Puankare” filmi qahramoni alam bilan. “Igna bilan quduq qazish”ga chog'langan ilm-ma'rifat kishilarining achchiq iztiroblari, orzu-armonlarini tirikchilik tashvishiga almashgan qalblar nadomatini tasvirlaydigan lavhalarini suratga olishda siz qaysi taqdirlar zarbasi va saboqlaridan xulosa chiqardingiz?

— “Puankare” asari tanikli yozuvchi va ssenarist Abduqayum Yo'ldoshev qalamiga

mansub. Bu asarni menga adabiyotshunos olim Shuhrat Rizayev tavsiya qilgan. Asarni birinchi o'qishimdayoq uni film qilishni niyat qilganman. Bu niyatimga yetti yil deganda erishdim. Ushbu filmda o'zingiz aytib o'tganingizdek, ilm-ma'rifat, ijod kishilarining maishiy tashvishlarga o'ralashib, o'z orzu-umidlarini ro'yobga chiqara olmagani, mashaqqatli mehnat-u achchiq iztiroblari aks etgan. Ilmli inson doim buyuklikka intiladi. U bu yo'lda hayotning quvonch-u tashvishlaridan voz kechadi, yangi kashfiyot yoxud buyuk ijod namunasini yaratib, olamga tanilish uchun umrini baxshida etadi. Biroq o'zbekchilik, deyshadi-ku, to'y, turmush, ro'zg'or, bola-chaqa, quda-anda, ma'raka va hokazo tashvishlar girdobiga ko'milib qoladi va oxir-oqibat orzu armonga aylanadi. Hayotda shunday bo'lmayaptimi? Filmning asosiy g'oyasi ham shu: Xorazmiy, Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Mahmud Zamaxshariy, Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi ilm-u hikmat borasida butun dunyoga mashhur ajdodlarimiz bo'lgan. Nega bugun o'zbek millatidan dunyoga mashhur olimlar, ixtirochilar yetishib chiqmayapti? Buning sababi nima? Abduqayum Yo'ldoshevning hikoyasi asosida ishlangan “Puankare” badiiy filmdan bu savolga qisman javob topish mumkin, deb o'ylayman.

— Mashhur kinematografflardan biri “Kinoda inqilob qila oladigan odam paydo bo'lmaguncha, biz — katta avlod noroziligimizni bildiraverishimiz kerak”, deydi. Ijod ahli hamisha bir qadam oldinda yurishini hisobga olsak, kelgusida kino olamida bizni qanday inqilobiy davr kutmoqda?

— Kinodagi inqilob deganda, o'zbek kinosi emas, jahon kinematografiyasi haqida gapirapsiz, deb tushundim. Agar kinodagi texnik inqilob haqida aytadigan bo'lsam, bugunga qadar jahon kinosida qilinishi kerak bo'lgan barcha imkoniyatlardan foydalanilmoqda. Kino olishda turli davrlarda inqilob sodir bo'lganini bilamiz. Oq-qora tasvirdan rangli tasvirga, lentalaridan kassetalarga, kassetalardan raqamli formatlarga o'tildi. Bugun esa 3D, 5D va hokazo formatlarda film olinaypti, xromokadr va grafiklardan ustalik bilan foydalanilyapti, filmlar qo'l telefonida suratga olinib, montaj qilinib, uzatilyapti. Kinolardagi qahramonlarni aktyorlar o'rninga grafikada yasalgan obrazlar ijro etyapti. Hatto sun'iy intellekt ssenariy ham yozib beryapti. Bularning hammasi kinodagi inqilobdan dalolat.

To'g'ri, milliy kinolarimizni yaratishda bu qadar ilg'or texnologiyalardan foydalanishga hali imkon bo'lmadi. Shunga qaramay, biz ham zamon bilan hamnafas yurishga harakat qilyapmiz. O'ylaymanki, agar endi virtual olam filmlari yaratilsa, shunda jahon kinosida yana inqilob sodir bo'ladi. Aslida, kinoda inqilob bo'lishi uchun har sohada: adabiyotda, san'atda, sanoatda ilg'or fikrlar, yangi texnologiyalar ko'payishi, umuman, har bir jabhada o'zgarish bo'lishi kerak. Shundagina kinoda ham inqilobni kutsak bo'ladi.

— Mazmunli suhbatigiz uchun rahmat.

“Yangi O'zbekiston” muxbiri Muxtasar TOJIMAMATOVA suhbatlashdi.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “Kolopak” MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 921.

44909 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolopak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug'murodov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'zA yakuni — 21:30 Topshirildi — 01:25